

BADIIY MATNDA CHEGARALANGAN LEKSIK BIRLIKLARNING BADIIY-ESTETIK VAZIFASI (SH.BOSHBEKOV ASARLARIDAGI SHEVAGA XOS VA DAG'AL SO'ZLAR MISOLIDA)

Andaniyazova Gavhar Ruziqulovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

O'zbek tili tarixi va dialektologiya bo'limi katta ilmiy xodimi

E-mail: gavharandaniyazova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17568359>

Annotatsiya: Badiiy matnda shevaga xos so'zlarning badiiy-estetik vazifasi, poetik qimmat alohida ahamiyatga ega. Ushbu maqolada ijodkorning individual-badiiy uslubini shakllantirishda va asar tilining o'ziga xosligini ta'minlashda noadabiy qatlamga mansub birliklarning o'rnini xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, poetik aktuallik, noadabiy qatlam, lahja, sheva, qarg'ishlar.

Ma'lumki, shevaga xos so'zlar "...adabiy til deyiladigan muazzam va muhtasham birliklarning boyishiga tirgak tutadigan tunganmas manbalar"¹ bo'lib, ular badiiy adabiyotga muayyan badiiy maqsad bilan olib kiriladi. Ammo haddan ortiq ko'p ishlatish ham qahramon nutqining og'irlashishiga sabab bo'ladi. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqida makon va zamon birligi tamoyili² muhim hisoblanadi. Sh.Boshbekov asarlari tilida shevaga xos so'zlardan mahalliy ruhni aks ettirish va asar qahramoni nutqini individuallashtirish maqsadida foydalanadi. Badiiy matnda shevaga xos so'zlar guruhi, shuningdek, shevaga xos talaffuz va morfologik shakllar ham diqqatga sazovor bo'lib, *ena* (ona), *chakki* (suzma), *lo'kkavoy* (mototsikl), *kunbotish* (g'arb), *opovsi* (*murojaat shakli*), *yozvos* (*yozyapsiz – grammatik shakl*) kabi hududiy chegaralangan so'zlar muallif badiiy niyatining aniq va to'la namoyon bo'lishi uchun zamin yaratgan. Asar qahramonlari bu nutq bilan o'quvchi yodidan hech qachon ko'tarilmaydi. Masalan: Turdi. (*opasining oldiga kelib*). *Nega kelding?*

Qumri. *Manavini tashlab ketibsanku.*

Turdi. *Nima u? Iye, Toshkentda chakki ko'tarib yuramanmi?*

Qumri. *Olib ketarkansan, enam aytdi. U yoqlarda bunaqa narsa tanqismish. (Ukasining qo'lidagi to'rvaxaltaga zo'rlab solib qo'yadi).* ("Manzil", 638-bet)

Yuqoridagi matn tarkibidagi *ena*, *chakki* so'zlari hududiy chegaralangan so'zlar hisoblanib, adabiy tilda *ona*, *suzma* leksemalari bilan ifodalanadi.

Quyida esa adabiy tilda *suhbatlashmoq* mazmunini ifodalovchi *hangama qilmoq* dialektizmining poetik aktuallashtirishini ko'rish mumkin: Husan. *Shuyam ish bo'ptimi? Qilaman degan odamga – nima! Keyin desangiz, yumshoq yostiqlarda yonboshlashib hangama qilishadi. Men aralashmayman. To'g'rida gaplariga tushunmaganimdan keyin tiqilib nima qildim.* ("Eski shahar gavroshlari", 142-bet)

Quyidagi matnda esa *shu yerda olmoshining* va hozirgi zamon *-yapti* qo'shimchasining Toshkent shevasidagi ko'rinishlarini, ya'ni morfologik shakllarini qo'llash orqali makon va

¹ Махмудов. Н. Юракка созланган сўзлар синоатлари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2022 йил, 19 август.

² Юлдашев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009.

– Б. 26.

zamon mutanosibligini ko'rishimiz mumkin. Masalan: Aqida. *Haa, ustingdan chaquv bor, deng? Hay, opovsi, kim yozibdi, gap sho'tta qoladi, a?*

Harbiy kishi. *Buning ahamiyati yo'q.*

Aqida. *Ahamiyati bor-da, qoqindiq, ahamiyati bor! Oftob o'lgur yozgan bo'lsa mayli, hisob bir-u bir bo'pti. Anavi, iloyo misginang chiqqur Kumush yozgan bo'lsa, boshqa gap. O'zi sal mundayroq. G'ilay. "Voy salom bersam, alik olmaysiz", deydi! Gapini qarang! Bir ko'zi Do'mbirovodga qarasa, bir ko'zi Achavotga qaraydi – kimga salom berganini it biladimi. Hay nima yozvoss, opovsi? ("Eski shahar gavroshlari", 131-bet)*

Yana matn tarkibidagi *"Bir ko'zi Do'mbirovodga qarasa, bir ko'zi Achavotga qaraydi"* tarzida qo'llangan jumla g'ilaylikni aniqlashtirib, Do'mbirovod va Achavot toponimlarining qo'llanishi orqali qahramonning muayyan hududga mansubligini ham ta'kidlaydi. Agar qahramon Farg'ona yoki Samarqanddan bo'lganida bu toponimlar qo'llanmagan bo'lar edi. Uning nutqini shevaga xos ifoda tarzi ham kuchli yoritishga xizmat qilgan.

Badiiy matn tarkibida bu kabi so'zlar milliy mansublikni, hududiy muhit koloritini ham ifodalaydi. Ijodkor o'z qahramonlarini o'zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so'zlardan, grammatik birliklardan o'z o'rnida, mohirona foydalana olgan. Sheva so'zlari mahalliy kelib chiqish, hududiy mansublikni o'zida aniq aks ettirish bilan bir qatorda badiiy asarda qahramon nutqining muayyan estetik vazifasini ham bajargan. Masalan: Pirmat. *Lo'kkavoyga o'tirayotib shopir bola "qayoqqa yuray" deganida indayolmay tamshanib qolding-ku! Keyin men aytdim "kunbotishga hayda", deb. ("Eshik qoqqan kim bo'ldi?", 256-bet)*

Ko'rinadiki, badiiy matnda hududiy chegaralangan lo'kkavoy – mototsikl, kunbotish – g'arb kabi so'zlarning bo'rttirib ifodalanishi hududiy mansublikni ifodalagan. Ammo dialektizmning estetik qimmat kasb etishi ularning qahramon nutqidagi me'yori va ishlatilishi, ayni paytda qanday ustamonlik bilan qo'llanishiga ham bog'liqdir. Sh.Boshbekov esa asarlarining badiiy ifodaliligi va ta'sirchanligini oshirishda mana shu me'yor nuqtalaridan mahorat bilan foydalana olgan ijodkordir.

Milliy tilning leksik sathida haqorat, do'q-po'pisa ma'nosida qo'llanuvchi dag'al so'zlar mavjud bo'lib, umumxalq tilini bulardan ayro holda o'rganib bo'lmaydi. Albatta, bunday birliklar adabiy til me'yorlaridan, madaniy va ma'rifiy nutqdan uzoq bo'lgan so'zlardir. Ijodkor tomonidan esa qahramon nutqiga dag'al so'zlar, asosan, quyidagi maqsad bilan olib kirilgan:

- ayrim qahramonlarning qo'polligi va madaniyatsizligini bo'rttirib ko'rsatish va shu asosda qahramon sajiyasini kitobxon ko'z oldida yaqqol gavdalandirish;
- nafaqat qadimda, hozir ham odamlar so'zlarning magik qudratiga ishonishini ko'rsatish;
- jonli nutqning ko'tarinki ekanligini, uning zavq-shavqini oshkora namoyish etish;
- ijodkorning tilga bo'lgan munosabatini ko'rsatish;
- ba'zan odam nafratdan to'lib toshib hech narsani o'zgartira olmagandagi ruhiy holatining tilda aks etishini tasvirlash.

Dag'al so'zlar matnda, asosan, nominativ ma'nolarga ko'ra emas, ayni shu yuqorida sanab o'tilgan konnotativ ma'nolarga ko'ra ham nutqda yashaydi. Lisoniy tahlil jarayonida badiiy matnga olib kirilgan dag'al so'zlarni kim (*jinsi, ijtimoiy tabaqasi, mavqeyi, yoshi kabilari*)ning nutqida ishlatilayotganiga qarab guruhlash, qanday vaziyatlarda va nima sababdan qo'llanayotganini hamda ularning leksik-semantik tarkibi, shevaga xoslanganligini aniqlash

lozim bo'ladi: Aqida. *Haa, ustingdan chaquv bor, deng? Hay, opovsi, kim yozibdi, gap sho'tta qoladi, a?*

Harbiy kishi. *Buning ahamiyati yo'q.*

Aqida. *Ahamiyati bor-da, qoqindiq, ahamiyati bor! Oftob o'lgur yozgan bo'lsa mayli, hisob bir-u bir bo'пти. Anavi, **iloyo misginang chiqqur** Kumush yozgan bo'lsa, boshqa gap. O'zi sal mundayroq. **G'ilay**. "Voy, salom bersam, alik olmaysiz", deydi! Gapini qarang! Bir ko'zi Do'mbirovodga qarasa, bir ko'zi Achavotga qaraydi – kimga salom berganini it biladimi. Hay, nima yozvoss, opovsi? ("Eski shahar gavroshlari", 131-bet).*

Yozuvchining mahoratini belgilovchi jihatlardan yana biri xalq tilidagi qoliplashgan birliklardan to'g'ri va o'z maqsadiga uyg'un foydalanish bilan belgilanadi. Bilamizki, xalq tilida **misi chiqmoq** iborasi mavjud. Bu ibora – asl mohiyati, asl qiyofasi fosh bo'lmoq ma'nosida ishlatiladi³. Muallif esa **misi chiqmoq** iborasining tarkibini kengaytirish orqali qarg'ish ifodalovchi kontekstda qo'llaydi. **Misi chiqmoq** iborasining *mis+ginang chiqqur* tarzidagi transformatsiyasi yolg'onning oshkor bo'lishiga umidni ta'kidlaydi. *-gina* affiksi ta'kidni kuchli tarzda ifodalaydi. *Iloyo* undov so'zining qo'shilishi esa so'zlovchi istagini yanada kuchaytirishga, frazeologik birlikning ayollar nutqidagi qarg'ishga xoslanish xususiyatini ta'minlashga xizmat qilgan. Ushbu matndagi *g'ilay* parsellyati haqida ham alohida to'xtalish zarur. *G'ilay* leksemasi mazmunan haqoratga xoslangan, qaraganda ko'z qorachiqlari bir tomonga yo'nalmaydigan, to'g'riga qaray olmaydigan, ko'z soqqasi qiyshiq o'rnashgan⁴ kishilar uchun ishlatiladi. Asardagi *Aqida* nutqida esa *g'ilay* salbiy munosabatni kuchli ifodalovchi leksik birlik sifatida qo'llanadi. Muallif *Kumushning* *g'ilay* ekanligini aytish bilan kifoyalanmagan. Avval gapning sintaktik strukturasidan *g'ilay* aniqlovchisini alohida gap — parsellyatsiya sifatida chiqaradi. Shuning o'ziyoq alohida e'tiborga molik badiiy yuk mavjudligini ko'rsatadi. Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, adib asarlarida ayollar nutqidagi dag'al so'zlarning o'ziga xosligini ta'minlaydigan xususiyatlardan biri sinonim so'zlarning qatorlashib qo'llanishi, obrazli ifodalar, yuklama, turg'un birikmalardan foydalanish holatlari ko'proq kuzatiladi. Ayollar nutqining eng xarakterli jihatlaridan yana biri yozg'irish, nola qilish xususiyatining yetakchi bo'lishidir. Qahramon ruhiyatidagi g'azablanish holatini ifodalashda siqiq jummalarning ishlatilishi, dag'al so'zlarning qo'llanishi kabilar shakl va mazmun mutanosibligi tamoyili asosida tekshiriladi. Aynan g'azab otiga mingan qahramon tasvirida yuz-ifoda yoki fe'l-atvor tasvirida qora chizgilar, bezgin ruh va yoqimsiz ifoda tarzi sezilib turadi. Insonning fe'l-atvori va qiyofasida ham ma'lum ma'noda muvofiqlikning bo'lishi tabiiy hol. Yozuvchilar badiiy asar yaratishda bu muvofiqlikni yanada bo'rttirib, ta'kidlab ifodalashga harakat qiladilar. Shu orqali asarning ishonarliligi ta'minlanadi hamda badiiy matnga munosabat shakllantirib boriladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Маҳмудов. Н. Юракка созланган сўзлар синоатлари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2022 йил, 19 август.
2. Юлдашев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б. 26.

³ O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022. – B. 313.

⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022. VI jild. – B. 527.

3. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022. – B. 313.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022. VI jild. – B. 527.
5. Boshbekov Sh. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 2022.